

2011-yil – Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili

www.tongyulduzi.uz

TONG

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

yulduzi

2010-yil
13-dekabr
N:50
(66799)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

CHIN DO'ST TASHLAB KETMAYDI

Kun sayin yaqinlashib kelayotgan yangi 2011-yilimizni sevimli nashrlari «Tong yulduzi» bilan kutib olishga odatlangan o'quvchilarimiz gazetaga allaqachon obuna bo'lishga ulgurishdi.

Obuna jarayonini kuzatish asnosida bu nashr ko'plab o'quvchilarning dilkash do'stiga aylanib borayotganiga guvoh bo'lyapmiz.

Ayniqsa, Farg'ona, Samarqand va Namangan viloyatlarida do'stlarimiz ko'pligi har doimgidek yarq etib ko'zga tashlanmoqda. Buxoro, Xorazm, Qashqadaryo va Andijon viloyati o'quvchilari ham o'tni qamchilaganlari ko'rinib turibdi. Farg'onalik va namanganlik tengdoshlari bilan doimo tengmateng yuradigan andijonlik o'quvchilarimiz hozircha o'z qo'shnilaridan orqada qolayotganlari bizni ajablantiryapti. Jizzax va Navoiy viloyatida esa aksincha, bu yil gazetamizga obuna ishlarida o'zgacha uyushqoqlik bilan yondashilayotganini ham alohida ta'kidlashni istar edik.

Surxondaryo, Toshkent, Sirdaryo viloyatlari, Toshkent shahri hamda Qoraqalpog'istonda gazetamiz obunasi anchagina oqsayotganidan biroz ranjidik.

Biz birovni maqtash yoki tanqid qilish fikridan yiroqmiz. «Tong yulduzi» Respublika bolalar va o'smirlarining yagona nashri. Unda mamlakatimiz bolalari hayoti, maktab va litsey o'quvchilarining ta'lim borasida qo'lga kiritayotgan yutuqlari o'z aksini topadi. Yurtboshimiz tomonidan «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili» deya e'lon qilingan 2011-yilda ham tadbirkor bo'lish niyatida o'qib-o'rganayotgan tengdoshlaringiz haqida hikoya qilishni niyat qilganmiz. Yagona maqsad esa yurt kelajagi bo'lgan yosh avlodning ma'naviy olamini imkon qadar boyitish. Gazeta Sizning minbaringiz, aziz o'quvchilar. Undan unumli foydalaning. Erkin fikrlashga o'rganing.

Taniqli shoirlarimizdan biri katta anjumanda «Kitob sodiq do'st, u hech qachon sizni tashlab ketmaydi» degan purma'no hikmatni aytgan edi. Bu fikr gazetamizga ham aloqador deb o'ylaymiz.

Xo'sh, siz-chi, bu xususda qanday fikrdasiz?



Gazetamizning eng faol muxbirlaridan biri andijonlik tengdoshingiz Mahfuzaxon Jaloldinova birinchilardan bo'lib sevimli nashriga obuna bo'libdi.

HAYOTIMIZ QOMUSI

Shunday mavzudagi ko'rgazma yaqinda Jizzax shahridagi 22-Davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabida tashkil etildi. Unda maktab o'qituvchi va o'quvchilaridan tashqari Alisher Navoiy nomli mahalla fuqarolar yig'ini faollari hamda maktabning sobiq o'quvchilari ham ishtirok etishdi.



Suratda: oliy toifali pedagog Feruza Pardayeva o'quvchilari bilan navbatdagi mashg'ulotda.

Ayniqsa, 6-7-sinf o'quvchilaridan Nilufar Ergasheva, Farida Sherqulova va Parvoz Orzuqulovlarning ma'ruzalarini yig'ilganlar katta qiziqish bilan tinglashdi. Shuningdek, o'quvchilar o'zlari tayyorlagan stend, fotoalbum, bukletlari hamda shu muhim sanaga atalgan rasmlari bilan qatnashdilar.

Tajribali pedagog Hilola Sidiqova va Feruza Pardayevalar o'quvchilardan «Konstitutsiya – baxtimiz poydevori», «Konstitutsiya – hayotimiz qomusi» kabi mavzularda bayon va diktantlar olishdi. G'oliblar maktab ma'muriyatining esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar. Bunday tadbirlar, tanlovlarda huqu-

qiy bilimlarini boyitgan maktab o'quvchilari viloyat va respublika miqyosida o'tadigan «Siz Konstitutsiyani bilasizmi?», «Prezident asarlarini o'rganamiz», «Sehrli yog'du» kabi tanlovlarda ishtirok etib kelishadi. Birgina 2009-2010-o'quv yilida 8-«A» sinf o'quvchisi Zuhra Hamdamova «Konstitutsiya – baxtimiz poydevori» mavzuidagi respublika ko'rik-tanlovida ikkinchi, Aziza Ochilova va Olmos Turdiyevlar esa faxrli o'rinlarni egal-

lashdi.

Maktab kutubxonasi boy kitob fondiga ega. Bu yerda ham Konstitutsiyamizning 18 yilligiga atab stend va fotoko'rgazmalar tashkil etilgan. O'quvchilar doimo o'zlarini qiziqtirgan savollari bilan kutubxona mudiri Hulkar opa Murodovaga murojaat qilishadi.

Jonkuyar ziyo tarqatuvchi Hulkar opa 2008-yili «Yilning eng yaxshi kutubxona mudirasi» respublika tanlovida birinchi o'rinni egallagan. Bu kabi bilimli, zukko ustoz va o'quvchilar maktabning faxriga aylanishgan.

Abdulla SAIDOV,
Jizzax viloyati

Sinfdoshingizning tug'ilgan kuni sizni bir savol o'ylantiradi: nima sovg'a qilsam ekan? Sovg'aning kutilmagani yaxshi bo'ladi-da!

Ha, mayli-da, sovg'a o'z yo'liga, hozir sizlarga o'tgan yili yozda Bo'stonliq tumanidagi tog' bag'rida qanday dam olganim haqida gapirib bermoqchiman. Birdaniga boshqa mavzuga o'tib ketganim g'alatiroq ko'rindi, shekilli. Balki, unda sizga asqotib qoladigan biror fikr chiqib qolar.

AJOYIB SOVG'A

Tog' yon bag'rida qurilgan kichkina uyhadaman. Kuni bilan kitob o'qiyman. Har zamonda daryo bo'yiga tushib, aylanib yuraman. Har gal daryo bo'yida mol boqib, qiy-chuv qilib yurgan bolalardan sal narida – mukkasidan tushib kitob o'qib o'tirgan bolaga ko'zim tushadi. U o'qiyotgan kitobiga shu qadar berilib ketganidan gohida do'stlari tepgan koptok boshiga tekkani ham sezmaydi. Bir kuni uning yoniga borib, o'qiyotgan kitobi bilan qiziqdim. Tanish muallifning asari ekan. Bu hol bizni tezda til topishib ketishimizga sabab bo'ldi. Endi har gal daryo bo'yiga tushganimda, Qudrat ismli yangi do'stimning yoniga boraman. O'qigan kitobi bo'yicha ba'zi narsalarni so'raydi. Uzoq guruh qilamiz. Goho yettinchi sinf o'quvchisi uchun u o'qiyotgan kitoblar og'irlik qilmasmikin, deb o'ylab qolaman. Qudratning «Tong yulduzi» gazetasini uch yildan buyon hech bir sonini qoldirmay o'qib kelayotganini bilganimda, yanada quvonib ketdim. Eng qizig'i, har yili do'stlari tug'ilgan kuniga sovg'a tariqasida gazetamizga obuna qilib qo'yisharkan. Ana shunaga gaplar! Nimagadir bu voqeani anchadan buyon sizlarga «ilinin» yurgan edim. Bugun mavridi kelganday bo'ldi. Shunday ekan, xulosa chiqarish o'zingizga havola.

Yusuf ABDULLAYEV



ZEB ICHRA ZIYNAT

«Toshkent PLAZA» majmuasidagi «Zeb ichra ziynat» San'at markazida «Xalqaro nogironlar kuni»ga bag'ishlab Toshkent shahridagi nogiron bolalarning maxsus maktablari tarbiyalanuvchilari uchun madaniy-ommaviy xayriya tadbiri o'tkazildi.



Mazkur xayriya tadbiri O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar ilmiy-metodik hamda axborot markazi, «Toshkent PLAZA», «Zeb ichra ziynat» San'at markazi, «G'uncha», «Gulxan» jurnallari hamda «Tong yulduzi» gazetasi hamkorligida tashkil etildi.

Tadbirda qo'g'irchoqsoz usta «Jayxun» xalq qo'g'irchoq teatri

badiiy rahbari, O'zbekiston Badiiy akademiyasi Respublika «Hunarmand» uyushmasi a'zosi Mansur Quryozov, xonandalar Abduqahhor Jo'rayev, Iroda Qurbonova, shuningdek, Fayzullabek Boltayev rahbarligidagi «Yashnar» an'anaviy sirk san'ati guruhi qatnashchilari ishti-

rokida konsert namoyish etildi.

– Xayriya tadbiri ishtirokchilari bo'lgan nogiron bolalar bilan «Zeb ichra ziynat» San'at markazida faoliyat ko'rsatayotgan hunarmandchilik va amaliy san'at ustalari ishtirokida «Ustoz-shogird» mashg'ulotlari tashkil etildi.



Tadbir nihoyasida ishtirokchilarga xayriya tadbiri tashkilotchilari hamda homiylarning esdalik sovg'alari topshirildi, – deydi Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar ilmiy-metodik hamda axborot markazi bo'lim boshlig'i Muhammadjon Qozoqboyev.

Tadbir bolajonlarga bir olam zavq bag'ishladi.

ZUBAYDA

Aziz bolajonlar, sevimli gazetangiz ijodkorlari sizlarning qanday bilim olayotganingizni bilish, erishayotgan yutuqlaringiz bilan yaqindan tanishish maqsadida maktabingizga tashrif buyurishidan xabaringiz bor, shundaymi? Ular sizga turli savollar berib, bilimingizni sinab ko'rishlari ham siz uchun sir emas. Bu safar «Tong yulduzi»ning navbatdagi tashrifi Yunusobod tumanidagi 274-maktabga bo'ldi.

Mitti qalblar quvonchi

1-«D» sinf o'quvchilari ustozlari Dilorom Mo'minova bilan birgalikda tayyorlagan tadbirlarini «Kitob – bizning do'stimiz» deb nomlashibdi. Yaqindagina maktabga qabul qilingan bu jajji o'g'il-qizlar to'rt oy davomida alifbodagi barcha harflarni o'zlashtirib, bemaol kitob o'qiydigan bo'libdilar. Buni biz ularning ifodali o'qigan she'rlari, ijro etgan sahna ko'rinishlari orqali bilib oldik.

– Oqil bobo bo'lish qiyin emas ekanmi? – savol bilan murojaat qildik Ismoilga.

– Yo'q, bu rol o'zimga yoqqani uchun uncha qiynalmadim. Bundan tashqari, tadbirda «Oftob – kitobim mening» kitobidan she'rlar yod olganim uydagilarimga ham ma'qul keldi.

– Men ham bog'chada Alisher Navoiy, Bobur rollarini ko'p bra ijro etganman, – deydi Abdulloh Olimbekov. – Tadbirda o'qigan she'rim o'zimga ham juda yoqdi. Uni takror aytib bersam maylimi?

Ne uchun bo'lmay xursand?!

Xazina topib oldim.

Menday bir odam bormi?

Baxtim ham chopib qoldi.

– Barakalla! – deya olqishladik Abdullohni. Uning she'r aytayotganini eshitgan sinfdoshlari ham suhbatimizga qo'shilishdi:

– Bizning uyimizda kitoblar ko'p, – deydi Robiya Saidova. – Nosir akam menga ertak kitoblar olib berganlar. Ular orasidagi «Tulki bilan Bo'ri», «Zumrad va Qimmat» kabi ertak kitoblarini o'zim bemaol o'qiy olyapman.

– Mening ismim Umidjon, men ham Robiyaga o'xshab ertak kitoblarni yaxshi ko'raman. Kechqurun uxlashdan oldin buvijonim menga va ikki singlimga qiziqarli ertaklar aytib beradilar.

– Men Saida Sayfullayevaman. Shohida buvimlar menga «O'zing bo'ya» nomli kitob olib berdilar. Rasm chizishni yaxshi ko'rganim uchun uning ichidagi rasmlarni bir zumda bo'yab chiqdim...

Qoyil, bu o'quvchilar endigina 1-sinf bo'lsalar ham kitob bilan do'stlashib olibdilar. Bundan xursand bo'lgan maktab rahbari Sayfulla aka Mahkamov



ham kitobsevar bolajonlarni «Ofarin» deb olqishladilar.

– Eh, qanday yaxshi-ya! – dedik kichkintoylar ko'zlaridagi quvonchni ko'rib. Mitti qalbingizdagi kitobga bo'lgan mehr hech qachon so'nmasin, deya ular bilan xayrlashdik.

Gulyuz BAHODIR qizi



– Sinfimizda 44 nafar o'quvchi bo'lsa-da, ularning bari turli fe'l-atvor va dunyoqarashga ega, – deydi sinf rahbari Dilorom Mo'minova. – Shunday ekan, har bir o'quvchining ko'ngliga yo'l topib, ularda fanlarga mehr uyg'otishga astoydil harakat qilaman. Bu borada kitoblar menga eng yaqin yordamchi bo'la oladi. Bolalar uchun yozilgan kitoblarni o'qib berib, ularni kitob o'qishga, odobli bo'lishga, puxta bilim olishga undayman. Mehnatim zoye ketmaganini bugungi tadbir orqali his qilib, o'quvchilarimdan juda mamnun bo'ldim.

Ustoz xursandchiligi bejiz emas ekan. O'quvchilar bilan suhbatlashib, ularning haqiqatan ham kitobga mehlari baland ekanligiga amin bo'ldik. Ismoil Ergashev sahna ko'rinishi orqali Oqil bobo rolini qoyilmaqom ijro etib, do'stlarini kitobni ardoqlashga chorladi.



KITOBGA MEHRIM ORTDI!



Dugonalarim bilan maktabimiz qoshida ochilgan turli to'garaklarga qamayapmiz. Men o'zim bir emas, ikkita to'garakka a'zoman. Tikuvchilik to'garagida tikish-bichishni o'rgansam, yosh ijodkorlar to'garagi mashg'ulotlarida qalamimni charxlayapman. To'garak rahbarimiz Sharofat Boboyevaning saboqlaridan she'r yozish borasidagi tushunchalarim boyib boryapti. Ustozim: «Nasrda ham chiroyli hikoyalar yozishing mumkin. Uslubing shunga moy kelyapti, iqtidorningni bir sinab ko'r», dedilar. Shundan so'ng, «Olxo'ri» deb sarlavha qo'yib, hayotdagi taassurotlarimni yozib bordim.

– Bu mitti hikoyacha bo'libdi. Uni «Tong yulduzi»ga yuboramiz, – dedilar ustozim mamnun bo'lib.

Sharofat opaning maqtovidan ruhlanib, adabiyotga ixlosim yanada ortdi. To'g'risi, avvallari biror kitob o'qisam, qachon tugur ekan, deya varaqlarini sanayverardim. Hozir esa ularni o'zgacha mehr bilan o'qiyapman.

Sevinchoy SHARIPOVA,
Xorazm viloyati, Urganch tumani,
Yuqorido'rmon qishlog'idagi
7-maktabning 6-sinf o'quvchisi

«Barkamol avlod yili» deb nomlangan mazkur 2010-yil bilan xayrlashib, yangi 2011-yilga qadam qo'yishimizga ham sanoqli kunlar qoldi. Ayni damda ortga bir nazar tashlab, erishilgan yutuq va natijalarimizni sarhisob qilamiz.

Faxr va iftixor bilan e'tirof etishimiz mumkinki, iqtidorli yoshlarimiz barcha jabhada ulkan muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritib, Vatanimiz salohiyatini yanada oshirishga o'z hissalarini qo'shishdi, yurtimiz sharafini yuksaklarga ko'tarishdi.

Toshkent viloyati, Chirchiq shahar sanoat kasb-hunar kollejining 3-bosqich talabasi Navro'za Umarova ham ana shunday izlanuvchan yoshlarimizdan biri. U «Zulfiya» nomidagi Davlat mukofoti uchun o'tkazilgan tanlovning shahar bosqichida muvaffaqiyatli ishtirok etdi.

Quyida tengdoshingizning ijodiy faoliyati haqida batafsilroq to'xtalmoqchimiz.

BUVISINING CHEVAR QIZI



Navro'zani bolaligidan bilaman: sho'x, o'yinqaroq qizaloq edi. Shunday bo'lsa-da, qo'li gul, chevar Mahbuba buvijonisining yonida o'tirishni juda yoqtirardi. Ayniqsa, ish tikayotgan buvisining qo'l harakatlarini, bir maromda aylanayotgan tikuv mashinasini soatlab kuzatishdan zerikmasdi. Ignaga ip o'tkazish, matolar orasida buvisining ko'zi ilg'amay qolgan qaychini, angish-

vonini topib berish, tikishda qiyinchilik tug'ilayotgan qalinroq matolarni tortib turish kabi yumushlar uning zimmasida bo'lardi.

Tikuv mashinasida qo'g'irchog'iga ko'ylak tikib berishni xohlardi-yu, buvisi ruxsat bermasdi.

– Hali biroz yoshlik qilasan-da. Katta bo'lsang, mana shu mashinamni senga beraman, o'zimming chevar qizimdan o'rgilay, – deya erkalab qo'yardi onaxon nabirasining tim qora sochlarini mehr bilan silab...

Yillar o'tgani sayin Navro'zaning bolaligidagi orzulari aniq maqsadga aylana bordi. Chirchiq sanoat kasb-hunar kollejida «Muhosiblik hisobi» yo'nalishi bo'yicha tahsil ola boshladi.

A'lo o'qishi, tadbirlardagi, jamoat ishlaridagi ishtiroki, odob-u axloqi bilan barchaga namuna bo'lib kelayotgan faol «Kamolot»chi Navro'zaga kollejdagii tengdoshlari havas qilishadi. U shahar miqyosida o'tkaziladigan «Zakovat», «Yosh iste'molchilar», «Siz tarixni bilasizmi?» ko'rik-tanlovlari, shuningdek, kollejda o'tadigan barcha

tadbirlarning ishtirokchisi. Ayniqsa, dizayn va modelyer yo'nalishi bo'yicha o'tadigan tanlovlarda ishtirok etib, o'z iqtidorini sinab ko'rishga intiladi. Bilmaganlarini o'rganadi, bilganlarini dugonalariga ham o'rgatadi. Kollejdagii saboqlar, tadbirlar, jamoat ishlari, yudagi yumushlar... Bularning bari unga og'irlik qilmaydimi, dersiz? Biz ham tengdoshingizga aynan shu savol bilan murojaat qilgandik. U sportning basketbol turi bilan muntazam shug'ullanishini, bu esa unga kuch-quvvat, tetiklik, xushkayfiyat bag'ishlashini aytdi.

Navro'zaning bo'sh vaqti deyarli bo'lmaydi. Darslaridan, tadbirlardan, uy yumushlaridan bo'shadi deguncha buvijonisining tikuv mashinasiga o'tirib, o'zi chizgan eskizlar asosida bejirim liboslar tikishga harakat qiladi. Tikkan liboslarini esa jajji singilchalariga kiydirib, modalar namoyishi o'tkazadi.

Navro'zaning dilidagi orzulari ham oy yuzi kabi oppoq. Kelgusida buvijonisining niyatiga yarasha qo'li gul tikuvchi bo'lishga, milliylik bilan zamonaviylikni uyg'unlashtirib, ko'rkam liboslar yaratishga intiladi.

Yurtimizda yoshlarimiz uchun yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalanib, aniq maqsad yo'lida intilayotgan, bilimlar cho'qqisini zabt etayotgan, hunar o'rganayotgan Navro'za Umarova kabi yoshlarimizdan bizning ham umidimiz katta.



Feruza JALILOVA

SHIRINOY MAQOLA YOZDI

– Shirinoy, «Tong yulduzi» gazetasiga maqola yozibsizmi? – so'radi
sinfdoshi Gulnoza gazetaning yangi sonini varaqlab.

– Ha, men bu gazetaning doimiy muxlisiman. 2011-yilga ham birinchilardan bo'lib unga
obuna bo'ldim.

– Voy, muncha yaxshi. Men ham maqola yozsam bo'ladimi?

– Albatta, bo'ladi. Nafaqat maqola, balki she'raringizni, chizgan rasmlaringizni ham yuborsangiz bo'ladi.
Gazetaning har bir sonini kuzatib borsangiz, nur ustiga a'lo nur... Bilimingiz boyiydi, dunyoqarashingiz
kengayadi.

– Unda men ham «Tong yulduzi»ga obuna bo'laman...

Bu suhbatdan angladikki, Shirinoy dugonalarining ham bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tishiga
hissa qo'shyapti.

Siz-chi, aziz o'quvchilar, sevimli gazetangizga obuna bo'lishga ulgurdingizmi?

Quyidagi gazetxonlarimiz esa allaqachon ulgurishibdi.

BIR SINFGA 10 TA «TONG YULDUZI»!

– Men rahbarlik qilayotgan 4-«A» sinf o'quvchilari bilimdon-u ilimga
chanqoqliklari bilan tengdoshlaridan ajralib turishadi. Maktabda o'tkaziladigan har
bir tadbirda faol ishtirok etishga harakat qilishadi. Kitob va gazeta-jurnallar o'qishga
juda qiziqishadi. Oralarida she'r yozadigan, rasm chizadigan iqtidorli
o'g'il-qizlar ham talaygina. Shu sababdanmi, 36 nafar
o'quvchinning hammasi to'rt va besh bahoga o'qishadi.

Ular gazetaning doimiy muxlisarlari hisoblanishadi. 2011-yil
uchun o'n nafar o'quvchinning «Tong yulduzi»ga obuna bo'lishi
buning yaqqol isbotidir.



Zamira MUHAMADIYEVA,
poytaxtdagi 154-maktab-
ning boshlang'ich sinf
o'qituvchisi:

BIZ BARKAMOL YOSHLARMIZ!

– Biz barkamol avlod bo'lib ulg'ayishimiz lozim. Buning uchun barcha sharoitlardan
unumli foydalanishga harakat qilamiz. Ko'proq kitob, gazeta va jurnallar o'qishimiz
kerak.

Men «Tong yulduzi» gazetasining muxlisiman. Uning sahifalaridagi mavzular bilan
tanishish jarayonida o'z ustimda yanada ko'proq ishlashim,
izlanishim, qalamimni yanada charxlab borishim kerakligini
tushunib boraman. Buning uchun gazetamga rahmat, deymen.

Maktabdoshlarim orasida birinchilardan bo'lib «Tong
yulduzi»ga obuna bo'ldim.



Hilola VALIYEVA,
Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz
tumanidagi
98-maktabning 6-«B» sinf
o'quvchisi:

DOIMIY HAMROHIM

– Men 9-sinfda o'qiyman. «Tong yulduzi» gazetasi bir necha yildirki, mening
doimiy hamrohim. Tengdoshlarim ijodidan ilhomlanib, men ham she'r yozishga
harakat qilyapman. Uning zavqi bilan bichish-tikish, pishiriqlar tayyorlash,
kiyimlarni munchoq bilan bezatishga kirishib ketaman. Barcha
ibratli ishlarim, avvalo, mutolaadan deb bilaman.

Istagim, gazeta orqali tengdoshlarim bilan do'stlashsam,
fikrlashsam...

Feruza SOYIBJON qizi tayyorladi



Sadoqat JAMOLOVA,
Namangan viloyati,
Chortoq tumani,
Peshqo'rg'on qishlog'i:

Bola bo'lsang, sho'x bo'l... Bu naqlni bolaligimizda bobo-buvijonlarimizdan ko'p marta eshitganmiz. Ular qilgan sho'xligimiz-u xatolarimizni «Ha, endi bola-da», deb qo'yishgan. Ammo o'yinqaroqlikning ham chek-chegarasi bor-ku. Masalan, dars paytida darsga xalal berib gaplashib o'tirish yoki ustozini mazax qilish (bu holatlar ham uchrab turadi) hech qanday qolipga sig'maydigan «sho'xliklar» sirasiga kirmaydimi?

Yaqinda bir qo'shningning maktabdan bolasini urishib, siltalab-siltalab olib kelayotganini ko'rib qoldim. Uning o'g'li Ja'far ham «sho'x» bolalardan. Bolaning ko'zlari qizarib ketgan. Ona-boladan gap nimadalgini so'radim.

– Tavba, – deya gap boshladi qo'shnim. – Ustozi maktabga yaqinda kelgan, hali juda yosh. To'polon qilayapsan, deb darsdan chiqarib yuboribdi. Nima emish, ko'p gapi-



BOLA BO'LSANG, SHO'X BO'L...

rib, dars o'tishiga xalal berganmish. Uyimiz katta yo'lning narigi betida bo'lsa, men o'g'limni maktabga ketdi, deb bemalol uy yumushlarimni bajarib yuribman. Bir mahal uyga kirib kelsa deng... Katta yo'ldan qanday o'tdi, bunisi menga qorong'u?! Axir biz ustozlarga ishonib bolamizni maktabga yuboramiz-ku, ular bo'lsa, ota-onangni chaqirib kel yoki to'polon qilayapsan, deya darsdan chiqarib yuborishsa... Bolamga biror kor-hol bo'lsa, kim javob beradi?

Hamrohining gapida jon bordek, nazarimda. Hammamizning ham bolamiz maktabga boradi. Ularni puxta bilim olib, kelajakda komil inson bo'lsin, deya ta'lim-tarbiya berayotgan ustozlarining qo'lga el ta'biri bilan aytganda, «Eti sizniki, suyagi bizniki» deya ishonib topshiramiz. Ammo ba'zi ustozlarning, bolangiz to'polon qildi, deb darsdan chiqarib yuborishlari to'g'ri-mikan? Darsdan chiqib ketgan bolaning qayerda yurishi, qanday ishlar bilan band bo'lishi, nahotki ularga taalluqli bo'lmasa?

Pedagogika va psixologiya fani ustozimiz: «Sinfdagi 20 nafar o'quvchi 20 xil fe'l-atvorga, xulqqa ega bo'ladi, ularning diqqatini jamlab, fikrlash doirasini bir nuqtada olib turish – o'qituvchining mahoratiga bog'liq», degandilar. Darsdan chiqib ketgan bola, avvalo, o'sha kuni o'tilgan mavzuni o'zlashtira olmaydi. Qolaversa, uning miyasiga, to'polon qilsam, o'qituvchim yana sinfdan chiqarib yuboradi, keyin bilgan ishinni qilaveraman, degan fikr joylashib qoladi va darsda o'qituvchisining g'ashiga ko'proq tegishga harakat qiladi...

Biz ushbu fikrlarimiz bilan o'qituvchilarimizni ayblamoqchi emasimiz. Ustozlarimiz orasida o'quvchini o'z faniga qiziqitira oladigan, turli usullar yordamida ularni darsga «bog'lab» qo'yadiganlari juda ko'p. Yoshlik qilib, bolani darsdan chiqarib yuborayotgan o'qituvchilar ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan ana shunday ustozlarning dars o'tish

usullarini o'rganishsa, ularning tajribalarini o'zlashtirishsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

Shu o'rinda ota-onalarga ham ikki og'iz aytar so'zimiz bor: darsda to'polon qilgan farzandimizni jazolashdan avval uning qalbiga quloq tutaylik. Balki mana shu sho'xliklar zamirida bolamizning bizga yoxud ustozlariga ayta olmayotgan gaplari yotgandir?

Bu xususda Sizing fikringiz qanday, aziz ustozlar, ota-onalar? Maktublaringizni kutamiz.

Ozoda TURSUNBOYEVA

Ayni kunlarda Andijon Olimpiya zaxiralari gimnastika sport maktabi binosi qayta ta'mirdan chiqdi va andijonlik sportsever yoshlarining eng sevimli maskaniga aylandi.

Poyoniga yetayotgan «Barkamol avlod yili» ularga barcha sharoitlarga ega bo'lgan muhtasham koshonasi tuhfa etdi.

Mazkur maskan Konstitutsiya-mizning 18 yilligi bayrami arafasida qad rostladi. Sport majmuasi O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi huzuridagi bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi hamda Andijon viloyat hokimligi tomonidan zarur sport jihozlari va musiqa to'plami bilan ta'minlandi.

2009-yilda viloyatdagi 1800 nafar tengdoshlaringiz gimnastika bilan shug'ullanishgan bo'lsa, ayni damda nafis sport turi bo'lmish gimnastikaning badiiy hamda sport akrobatikasi turi bilan shug'ullanayotganlar soni 2800 nafardan oshib ketdi.

O'n oltinchi yozgi Osiyo o'yinlarida badiiy gimnastika bo'yicha qizlarimiz o'z iste'dod va mahoratini namoyon etib, Osiyo qit'asi vakillari orasida sharaflil ikkinchi o'rinni egallashgani mamlakatimizning sport hayotida misli ko'rilmagan quvonchli voqea bo'ldi.

Prezident Islom KARIMOVning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 18 yilligiga bag'ishlangan tantanalil marosimdagil ma'razasidan.

MUHTASHAM KOSHONASI BOR

Yangidan qad rostlagan maskanning ochilish marosimida gimnastika federatsiyasi bilan hamkorlikda tash-

jonova, Aziza Mamajonova, Asal Safaboyeva va Latofat Bobojonovanning mahoratli chiqishlari hech kimni befarq qoldirmadi. Shuningdek, viloyatning chekka hududlari bo'lgan Qorasuv, Xonobod va Asaka shaharlaridagi sport inshootlaridan badiiy gimnastika va sport gimnastikasi turida shug'ullanayotgan bolalar uchun mahorat saboqlari ham o'tkazildi. Go'zallik va nafosat mehnat va izlanish orqali yanada ko'rkamroq, bo'y ko'rsatadi.

Biz bugun andijonlik sportchi-yoshlar yanada ko'proq yutuqlarni qo'lga kiritishlariga aslo shubha qilmaymiz. Boisi, ularning barcha qulayliklarga ega bo'lgan muhtasham koshonasi bor.



killashtirilgan musobaqa bo'lajak sportchilarning zavqiga zavq qo'shdi. Ayniqsa, taniqli gimnastikachilarimizdan Luiza Galiulina, Diana Karim-

«Barkamol nihollar – 2010»

QIZLAR BAHSI

Katta musobaqalar sari yo'l, albatta, kichik bahslardan boshlanadi. Qizlar o'rtasidagi yana bir musobaqa Namangan shahrida bo'lib o'tdi.

Unda 1996-97-yillarda tug'ilgan dugonalaringiz ishtirok etishdi. Sportning voleybol turi bo'yicha o'tgan bellashuvlar bo'lajak sportchi do'stlaringizni «Barkamol nihollar – 2010» sport musobaqalari orqali «Barkamol avlod» va «Universiada» kabi nufuzli musobaqalarga tayyorlab borish imkonini bermoqda. Murosasiz kechgan bahslarda birinchiлик Yangiqo'rg'on tumanining «Iskavot» 1 TIP sport majmuasi qizlariga nasib etdi. Ikkinchi o'rinni Namangan tumani yoshlari, uchinchiликni farg'onalik qizlar band etishdi.



Yangi chempionlarni kashf etishda murabbiylarga musobaqalar katta yordam beradi. Namanganda ham bu usul yana bir bor sinovdan o'tkazildi. Har yili o'tqazilishi an'anaga aylanib borayotgan «Barkamol nihollar – 2010» sport festivali 2011-yilda ham o'z ishini davom ettiradi, deya mutaxassislar mezbonlikni samarqandlik yoshlarga topshirishdi.

Bunday musobaqalarni o'tkazishga bel bog'lagan Madaniyat va sport ishlari vazirligi, O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasining yangi yil rejaları ham yil chempionlarini saralab, ularni nufuzli musobaqalarga tayyorlashdan iborat.

Ma'mura MADRAHIMOVA






GULLAR

Quyoshdan chiroy ochar,
Zamindan quvvat olar.
Bog'larning malikasi
Qalblarga quvonch solar.

Bayram quvonchi kunda,
Hamroh bo'lar bizlarga.
Quchog'ini to'ldirib,
Chiroy qo'shar qizlarga.

Rang-barang gullaringa,
Boqsam, aqlim shoshadi.
Murg'ak qalbdagi zavqim,
Tog'lardan ham oshadi.

Durdona KARIMOVA,
Toshkent shahar,
Yunusobod tumanidagi
97-maktabning 9-sinf o'quvchisi



*Biz hayvonot bog'ida
Ko'plab hayvonlar ko'rdik.
Jirafa, ayiq, sirtlon,
Sherdan hol-ahvol so'rdik.
Bo'rilar ahil-inoq,
Yashashar bir uyada.
Sahrolarga borgandek,
Bo'ldik norg'ul tuyada.
Ayyor tulki dumini
Likillatib turibdi.
Maymunlar shoxdan-shoxga
Shodon sakrab yuribdi.
Toshbaqa kosasini
Tashlamas hali-hanuz.
Begimot, timsohlarga
Liq to'la katta hovuz.
Xullas, bu galgi safar
Juda ajoyib bo'ldi.
Bizning murg'ak qalbimiz,
Taassurotlarga to'ldi.*

Kamola TEMIROVA,
Surxondaryo viloyati,
Angor tumanidagi
5-maktab o'quvchisi

ONAM UCHUN Sizlarga so'zlamoqchi bo'lgan bu hayotiy voqeamni menga bir mushtipar onaxon so'zlab bergandi. NIMA QILDIM?

(Voqeyi hikoya)

Ayol ikki o'g'li va ikki qizi bilan juda barvaqt beva qolibdi. Farzandlarini yolg'iz o'zi hech kimdan kam qilmay voyaga yetkazibdi. Kunlarning birida ayol ko'chadan yetti-sakkiz yoshlar atrofidagi bir bolakayni yetaklab kelibdi. Olim ismli bu bolakayning ota-onasi yo'qligi uchun ust-boshlari yupun, nochor ahvolda yurgan ekan. Lekin juda zehni, aqli bola ekan. Ayolning unga rahmi kelib, uyiga olib kelibdi.

– Bugundan boshlab sen ham oilamiz a'zosi bo'lasan. Ikki o'g'lim uchta bo'ladi, – deya undan bor mehrini ayamabdi onaxon. Bu hol farzandlariga yoqmadbi va Olimni turtkilar boshlabdilar.

Ona va bolalar o'rtasiga sovuqchilik tushirib qo'yishdan cho'chigan zehni Olimjon bu xonadonda yetti kungina yashab, so'ngra bosh olib ketibdi. Bundan ona qattiq iztirob chekibdi. Olimni uzoq qidirib, topa olmabdi.

Kunlar ketidan oylar, oylar ketidan yillar o'tibdi. Ayol farzandlarini o'qitib, uyli-joyli qilibdi. Keksayganda esa eski bir hujrada o'zi yolg'iz qolibdi va og'ir xastalikka chaliniydi. Shifokorlar uning dardi og'irligini, zudlik bilan jarrohlik amaliyotini o'tkazish lozimligini aytishibdi. Tasodifi qarangki, u farzandlikka olmoqchi bo'lgan Olim ismli bolakay ulg'ayib, mohir shifokor bo'lib, anan shu shifoxonada mehnat qilayotgan ekan. Jarrohlik amaliyotini o'zi o'tkazib, uyiga ham ketmay, tun-u kun uning qoshida parvona bo'libdi. Yigitdan bunday yo'l tutishining sababini so'rganlarida: «Bu ayol uchun qo'limdan kelgan yordamim ekan-ku, hatto jonimni bersam ham arziydi.



Sarvinoz UMRZOQOVA,
O'zMU qoshidagi S.H.Sirojiddinov nomli
akademik litsey o'quvchisi

To'g'ri, bu ayol menga yetti kungina onalik qilgan. Lekin shu oz fursat ichida men onalik mehri qanday bo'lishini his qildim, dunyoda shunday mehribon insonlar borligiga ishonib yashadim. Shu mehr tufayli bugun yaxshi insonlar safidaman, insonlarga nafim tegyapti», deb javob bergan ekan.

Onaxonning hikoyasidan qattiq ta'sirlandim va chuqur o'yga toldim: xo'sh, biz-chi, mehribon onalarimizning yetti kunlik emas, yetti daqiqalik mehnati haqqini oqlay olyapimizmi? Onamiz uchun nima qildim?..

QISH ZAVQI

Qish keldi, ayoz bo'ldi
Qor yerga pardoz bo'ldi.
Chana uchib, dumalab –
O'yinimiz soz bo'ldi.

Kech bo'lganin sezmadik,
Sovuq nima, bilmadik.
Qo'llab bir-birimizni
Sira xafa qilmadik.

O'ktam, Adham, Nor, Bo'ron...
O'ynadik xo'p qorbo'ron.

TOPISHMOQ

Tomda yotdim qancha man?
Zerikib goldim ancha man.
Qorni ko'rdim-u, tushdim –
Tanidingmi?..

Anvar MIRZAZODA,
Toshkent viloyati,
Zangiota tumani

TILSIZ YOVDAN ASRAYLIK!

O'lkamizga qish fasli kelib, kunlar sovishi bilan uylarimizni isitishga bo'lgan ehtiyoj yanada ortadi. Ko'plab fuqarolarimiz shu maqsadda qo'lbola isitish moslamalaridan foydalanib, o'z'lari, yaqinlari hayotini xavf ostiga qo'ymoqdalar.

Shunday ko'ngilsizliklarning oldini olish maqsadida yurtimizda 15-noyabrden 15-dekabrgacha yong'in xavfsizligi oyiligi o'tkazilyapti. Fuqarolarimiz quyidagi qoidalariga rioya qilsalar, o'z uylari, ish va o'qish joylarini, qolaversa, yaqinlari hayotini asrab qolgan bo'ladilar:

– ochiq alagandan foydalanayotganda, ehtiyotkorlik choralarini ko'rish;

– elektr va gaz asboblari doimo soz holda tutish va nosoz holdagi qo'lbola tayyorlangan gaz va elektr asboblardan foydalanmaslik;

– belgilanmagan joylarda chekmaslik.


Shuningdek, farzandlarimizni nazoratsiz qoldirmasligimiz lozim. Zero, bolajonlar bizning kelajagimiz. Ularni avaylab-asrab voyaga yetkazishga, har tomonlama yetuk komil inson qilib tarbiyalash har birimizning burchimizdir. Shunday ekan, nafaqat o'z farzandimiz, balki o'zgalarning farzandlaridan ham maslahat va nasihatlarimizni ayamashimiz lozim. Ularning nogiron bo'lib qolishlarini hech birimiz istamaymiz. Yong'in esa bir necha daqiqada kishilarni majruh qiladigan, mol-mulkidan va yaqinlaridan ajrata oladigan bir ofatdir.

Shunday ekan, yong'in xavfsizligi qoidalariga nafaqat oylik davomida, balki doimo amal qilishlari maqsadga muvofiq bo'lardi. Shundagina ko'plab baxtsizliklarning oldini olgan bo'lamiz.

Avaz SAIDAHMEDOV,
IIBB YOXB 12-KYOXO inspektori

Qambar OTA

UMRBAXSH SUV



Suvdir olamning joni,
Obod umr bo'stoni.
Suv bor joyda yashnar don,
Tandirlarda pishar non.
Qonib ich, yayrab yuvin,
Bahramand bo'lib sevin.
Diling gul yashnar, mazza,
Qanday soz – taning toza.
Kim qatra durin tejlar,
Yurtin taqdirin bezar.

MUALLIF

Qadimiy, olis yurtida,
Sirlı-sehrli kentda.
Tog'iga yog'ib sharbat,
Yal-yal yonarkan novvot.
Voy, qanday maza dersiz,
Lazzatbaxsh rosa dersiz,
U yerlarda-chi, ammo
Suv ekan ko'p muammo.

* * *
Bobolar-u momolar,
Ota-ona, bolalar,
Sharbat ichgani sayin,

Ahvoli bo'lib qiyin.
Bosilmasdan chanqog'i,
Qaqrar ekan tomog'i.

* * *

Xurjunida ko'zasi,
Suvlarning eng tozasi.
Ortda qoldirib xatar,
Yo'llardan karvon o'tar.
Butun bir sharbat qishloq,
Bo'lishib tashna, chanqoq.
Toliqqanda darmondan,
Najotpesha karvondan
So'rasharkan qultum suv,
Hech qursa, bir yutum suv.

* * *

Uzoq yillar behuda
Rohatdan bo'lib judo.
Uzun tunlar, o'ylashib,
Jonlarini qiynashib,
Cheksada cheksiz ozor.
Bo'lmaylik deb suvga zor,
Qaytadan necha-necha,
Tuzishar ekan reja:

«Eng maqbul, saxiy eldan,
Uzoqmas, yaqin yerdan.
Birlashib, qazib anhor,
Dillarni etib bahor.
Ko'ngillarni aylab shod,
Yurt bog'in etsak obod.
Tashnalikni qondirsak,
Baxt chirog'in yondirsak!»
Deb uzoq o'ylab tolib,
Qolisharkan tin olib.
«Qilsak-da zo'r hafsala,
Ko'p mushkul bu masala.
Agar shoshib etsak hal,
Chiqishi mumkin ishkal.
O'ylab ko'rsak, bekorga
Mushuk chiqmas oftofga.
Hech kim suvin bemalol
Berib, qarab turmas lol».
El-u yurtning g'amin yeb,
Sof, pokiza suvni deb,
Har qancha chekmoq zahmat,
Bizga baxsh etar rohat.
Muhimi, suvga qonish,
Darkor izlanish, yonish...

* * *

Kentda nomdor, donolar,
Oqil, uddaburrolar,
Bashoratchi-sezgilar,
Farosatda o'zg'irlar.
O'tkir fikr anglashib,
Dardli, uzoq kengashib,
Ko'rmaslik uchun zarar,
Qilmishlar yakdil qaror.

* * *

Vatandagi sharbatdan,
Eritilgan novvoidan.
Ezgu hislar tuyushib,
Idishlarga quyishib.
Dillarga tugib g'ayrat,
Kulsin, deb tole, omad
Yetgach yorqin saharga,
Jo'nabdilar safarga.

* * *

Sahro kezib, yo'l yurib,
Yo'l yursa ham mo'l yurib,
Zo'r joylardan o'tmishlar,
Ko'l, soylardan o'tmishlar.
Obizamzami tiniq,
Umrboxshligi aniq.
Vatanlarga yetmishlar,
Chamanlarga yetmishlar.
Do'stlik sha'nin yoqlashib,
Sharbatlarin maqtashib.
Talabgorga tutmishlar,
Javoblarin kutmishlar.
Qanday yaxshi sharbat deb,
Dilga quvvat novvot deb.
Yoqqanini sezmishlar,
Shartnomalar tuzmishlar.
Bir-birining ne'mati,
Dildan qilgan xizmati.
Yogib ikki tomonga,
Rahmat aytmish zamonga.
Mezbon yurtning pokiza,
Billurday tiniq, toza.
Zilol suvin sharaflab,
Yuzlarida nur charaqlab,
Qonib-qonib ichmishlar,
Quv nab, yonib ichmishlar.
Sharbat ulab do'st-yorga.
Qaytib ona diyorga.
Faxr zavqin quchmishlar,
Muammoni yechmishlar,
Yaqin-yiroq yurtlardan,
Shaharlardan, kentlardan.
Mo'jizakor toza suv,
Bir-biridan maza suv.
Oqib kela boshlabdi,
Tole kulab boshlabdi.

* * *

Hattoki tamsiz sizot –
Suvin tozalab bot-bot.
O'zga hayot baxsh etmish,

Ezgu lazzat naqsh etmish.
Yerning chuqur qa'ridan,
Sirlar to'la bag'ridan.
Eng muloyim, eng toza
Shifo berguvchi rosa-
Suv oqqushday otilib,
Chiqmish ko'kka intilib.

* * *

Qish chog'i mayin-iliq,
Ko'zguday suvi tiniq.
Yozda muzday qultimi,
Lazzatbaxshdir yutimi.
Endi bu yurtida mangu,
Charaqlar tole tongi.
Suvlar turiga ko'ra,
Mazali, tiniq, sara,
Iliq, yoqimli, mayin,
Shifoboxshligi tayin.
Ichimligi – umrbaxsh.
Ilimgi'chi, umidbaxsh.
Sihatiga aniq ishonch,
Salomatlikka tayanch.
Suvdir olamning joni,
Umlarning qalqoni.
Shu sababli har qachon
Suvni e'zozlar jahon.
Tuzilib zo'r rejalar,
Har tomchi suv tejalar.
Zarur doim e'tibor,
Har qatraning o'rni bor.
Texnika bir maromda,
Go'yo joni oromda,
Ekinlarni siypalab,
Sug'oradi sepalab.
Tole quchib insonlar,
Ochilgandir imkonlar.
Toza suvdan qoniqib,
Chehralari tiniqib,
Hayotlari farovon,
El yashar dorilomon.

(Qisqartirib bosildi)

(Boshi 48-sonda)

Shamshiddin degan amakim bor. Uylari bizdan olis emas, Qo'shtegirmonning yonida turadi. Bir kuni uylariga bordim. Qarasam, hovlida amakimning qizil yo'rg'asi turibdi. Otni ko'rib sevinib ketdim. Amakim eski yilqichi. Uning ko'p umri Qoratovda o'tadi. Onda-sonda uylariga tushib, ikki-uch kun turadi-yu, tag'in ketadi. Amakim hovli o'rtasidagi o'rik ostida yonboshlab choy ichib o'tirgan ekan.

– Ke, Abdurahmon, – dedi qaddini sal ko'tarib, – qalay, bobong salomatmi? Dunyoda nima gap?

– Zerikib ketdim. Maktabga hali bor. Uydagi yumushlarim ham bitdi.

– Bekorchi bo'lsang, tovg'a obketay, bolakay. Charchamaymanmi?

Haligacha Qoratovni ko'rmaganman. Amakimning gapidan yuragim dukilladi. Qani endi...

– Charchamayman, amaki. Sizga ko'makchi bo'lib yoningizda yuraman.

– Unda uyingga bor-da, ayangga aytib kel. Ha, aytgancha, issiq kiyim olib ol. Tovda ayozlab qolasan.

Oyog'imni qo'lga olib, uyga yugurdim. Bir to'rvaga qalin ko'ylaklarimni, chalvorimni solib qaytib keldim. Amakim otini egarlab, meni kutib turgan ekan. Salima xolam xurjuning bir ko'zini to'ldirib, sutli patir, o'rikqoqi, choy, qand-qurs solib berdi. Ikkinchi ko'ziga amakim, qozoq tomirlarimga, deb ikkita qovun soldi. Otning orqasiga mingashib oldim.

Peshinda yo'lga chiqqan bo'lsak, kun botay-botay deganda Beshsoz degan keng yaylovga yetib bordik. Buloq bo'yidagi katta, oq o'tov oldida otdan tushdik. Qarasam, to'rt tarafdin buzoqday keladigan to'rt it bostirib kelayapti. Amakimning pinjiga suqildim.



IKKI OYOQCI BO'RI

– Qo'rqma, bu o'zimizning bo'ribosarlar, – dedi amakim va «Sirtlon!», «Qoplon!» deb chaqirdi. Itlar darrov to'xtashdi. Ichkaridan amakimning eski tomiri Jonuzoq qo'yehi chiqdi.

U bizni ko'rib, suyunib ketdi.

– O'ypirmay! Shamshi mergen, o'zingma? Kel, Qarog'im! Balangni-da ol, ay kelganing tavur bo'ldi. Eki kun bo'ldi, molg'a qashg'ir oraladi. Shamshi kelse otib berer, deb jo'l qaraymin. Otni boyla, o'tovg'a kiringler! Ay, Oygul, Qo'noq keldi, qozon os!

Cho'ponlarning yaxshi odati bor ekan. Mabodo, mehmon kelib qolsa, kunduz yo kecha demay, albatta, qozon osib, ovqat pishirishga tushar ekanlar. Muzdek buloq suvida yuvinish to'zimga kelguncha qozon ham qaynadi. Sopol tovoqda qo'y go'shti, zarang kosalarda qimiz keldi. Archa isi gupillab turgan hil-hil pishgan qo'zi go'shti bilan qimizga to'yib olib, to'shakka kirdim.

Olis yo'lda charchagan ekanman, qotib uxlab qolibman. Bir zamon qiy-chuv, to's-to'polondan

Sa'dulla QARNOQLI

Bolalik yillarimdan hikoyalar

cho'chib uyg'onib ketdim. Kun yorishib qolibdi. O'tov atrofiga qo'ylar ma'raydi, otlar kishnaydi. Jonuzoq tog'a «Qo'rag'a qashqir tiyibdi, ay, Shamshi, Qaydasin, miltiqni obkel», deb baqiradi.

Irg'ib turdim. Chalvorimni nari-beri kiyib, tashqariga o'tildim. Bir qo'ra qo'y chir aylanib, bir-birining biqiniga suykaladi, ho'v narida to'rt bo'ribosar vovullab adrga qarab chopib borayapti. Ular Qashqirni quvib ketayapti shekilli-da. Jonuzoq tog'a, qo'yirdi qirilmaptimi, deganday podani ko'zdan kechirdi. Amakim miltig'ini olib, osmonga qarab otdi. Tog'ni gumburlagan tovush tutib ketdi.

Bo'ri ikki sovligni chala bo'g'izlab ketibdi. Jonuzoq tog'a hamon jon holatda tipirchilab yotgan qo'ylarni saranjomlab, terisini shilib oldi.

Hademay Jonuzoq tog'aning to'rttala iti lo'killab qaytib keldi. Cho'pon ulami urishib berdi:

– Qashqir kelganini bilmedinglarmi, haramtomloqlar?! Bir urib, bet-ovzingni buzayinmi, jaramas!

Cho'pon qo'lidagi cho'qmorini ko'tardi. Itlar taysalib, to'rt qadam chekinishdi. Jonuzoq tog'a, senlarga bugun tomoq jo'q, deya o'tovga kirib ketdi. Biroq, Oygul xola bir tog'ora achchiq ichakni olib chiqib, o'tov sirtidagi chuqurga to'kdi. Qoplon-u Sirtlon baravar o'tov ortiga qarab chopdi.

Qurtobaga zog'ora nonni bo'ytirib yeb, qorinni aldad oldim. Keyin amakim bilan yilqilardan xabar olgani tog'ning ichkarisiga qarab ketdik.

(Davomi bor)

Umumta'lim maktablarida o'quvchilar bilimlarini mustahkamlash va bolalarning fanlarga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish maqsadida, yil davomida fan oyliklari muntazam o'tkazib kelinmoqda.



Mehrni oshirdi

Noyabr oyi an'anaga muvofiq rus tili fan oyligi deya e'lon qilingan edi. Poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 59-Davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabida ham mazkur oylikni ko'tarinki ruhda o'tkazish uchun rejalar asosida tadbirlar o'tkazildi.

O'quvchilar ishtirokida o'tkazilgan ochiq darslar, sinfdan tashqari olib borilayotgan to'g'arak ishlari bayram tadbirlariga ulandi.

Jumladan, 4-sinflarda «Shifokor qabulida» mavzusi multimediyasi asosida tashkil etildi. O'quvchilar mashg'ulot davomida kichik sahna ko'rinishi namoyish etib, rus tilida turli xil dialoglar tuzdilar. O'zbek tilidagi mashqlarni rus tiliga tarjima qildilar. Dars davomida olgan bilimlarini mustahkamlab, test savollariga javob berishdi.

Ayniqsa, ilg'or ustoz Malohat Sarimsoqova tomonidan tashkil qilingan mashg'ulot mazmunli va qiziqarli o'tdi. Dars so'ngida kuz faslining erka qizi Oltinoy a'lochi o'quvchilarga o'z sovg'alarini ulashdi.

Tadбир davomida rus tili fani o'qituvchilari D.Popov, N.Hoshimov va D.Tsoy tomonidan ham ochiq darslar tashkil etildi.

Bunday tadbirlar o'quvchilarning rus tili faniga bo'lgan mehrini yanada oshiradi.

Muzaffar AHMEDOV



YURTGA POSBON BO'LAMAN!

Harbiycha kiyimlari o'ziga yarashib turgan tengdoshingiz Umidjon Abdullayev Toshkent shahar, Hamza tumanidagi 161-maktabning 7-«D» sinfida a'lo baholarga oqiydi. Shuningdek, u qo'shiqchilik san'ati ixlosmandi hamdir.

«Yangi avlod – 2010» bolalar ijodiyoti festivalining shahar bosqichida qo'shiqchilik yo'nalishi bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Erishayotgan yutuqlari uchun u ustoz Malik Majidovdan behad minnatdor.

Umidjonning kelajakda xalqimizning ishongan o'g'lonlaridan biri bo'lishiga ishonamiz.

AZIZA



AMMOLAR

Ustoz darsga kech qolgan Baxtiyorga tanbeh berdi:
– Nega darsga kech qolding? Soat sakkizda maktabda bo'lishing kerak edi.
–Voy, men yo'qligimda biror narsa bo'ldimi?..



O'qituvchi o'quvchidan so'radi:

– Ayt-chi, Dilmurod, baliq nega gapirmaydi?

– Siz suvning ostida gapira olasizmi, ustoz?..




M.UBAYDULLAYEVA tayyorladi

Bo'sh o'tirmay, bosh qotir!



Bitta gugurt cho'pining o'rnini shunday o'zgartiringki, ishlagan amalingiz to'g'ri chiqsin.



12 dona gugurt cho'pidan 4 ta kvadrat yasalgan. Siz 3 ta gugurt cho'pining o'rnini almashtirib, uchta kvadrat hosil qiling-chi.

Fayzulla ABDULLAYEV

TONG YULDUZI

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi.

«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi.

«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga

qarashli bo'lgan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR:
To'liqin HAYITOV

Dizaynerlar:
Fazliddin SHOYODGOROV,
Olovuddin ORIPOV
Navbatchilar:
Feruza SOYIBJON qizi,
Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Avaz MARAHIMOV,
Svetlana INOMOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Odina JAMOLDINOVA,
Jabbor RAZZOQOV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruza ADILOVA
(mas'ul kotib),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzilmiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@bk.ru
www.tongyulduzi.uz
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston» NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 31687
Buyurtma N: J 677